



O‘zbekistonda xalqaro mintaqaviy hisoblar tizimi standartlaridan foydalanish imkoniyatlari

TDIU, magistranti

Sobirova Muxlisa Sherali qizi

Annotatsiya. Mazkur maqolada xalqaro mintaqaviy hisoblar tizimi standartlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari maqolada mintaqaviy hisoblar tizimi asosida yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblash usullari va usullar asosida hisoblash tizimi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Mintaqa, mintaqaviy hisoblar, daromad, xarajat, qo‘shilgan qiymat, rezident, milliy hisob, schyot, yollanma ishchilar, yalpi qo‘shilgan qiymat, bandlik.

Kirish. Bugungi kunda iqtisodiyot va sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib borayotgan davrda mintaqaviy hisoblar tizimi (MHT) jahonning ko‘plab mamlakatlarida qo‘llaniladi. Bu tizimlar xalqaro hisob-kitoblar standartlari hisoblanadi. Masalan, makroiqtisodiy parametrlar milliy hisoblar tizimi asosida hisoblanadi. (YaIM, SMM, MD, ShD, IShD, va boshqalar).

Ma’lumki, mamlakatimizni yanada ravnaq toptirish yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilindi va bu strategiyaning bosh g‘oyalaridan biri sifatida barqaror o‘sish orqali daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin olish belgilab berildi¹. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojini o‘rganishda ma’lum bir axborotlar bazasiga extiyoj tug‘iladi. Bu zaruriyatlar avvalambor mintaqaviy rivojlanish borasida qarorlar qabul qilish uchun kerak. Hozirda, mintaqaviy hisoblar tizimi asosida mintaqaviy darajadagi makroiqtisodiy

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni.



ko‘rsatkichlarni hisoblash va tadqiqotlar olib borish borasidagi ahamiyati ortmoqda. Ayniqsa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti tahlilida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi va buning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘lmoqda:

Birinchidan, mamlakat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqarishda mintaqalararo tahlillarni amalgalash uchun;

Ikkinchidan, davlat boshqaruving mintaqalar rivojini tahlil qilish va tartibga solish instrumeti sifatida mazkur hisoblarning ahamiyati ortmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Maqolani yozishda mualliflar bir qator mahalliy va xorijiy olimlarning yalpi hududiy mahsuloti dinamikasini baholashdagi uslubiy yondashuvlarga asoslanishdi.

Jumladan, I. Yakubov va boshqalar “Mintaqaviy iqtisodiyot” (2020) darsligida mintaqaviy hisoblar tizimini takomillashtirish haqida tavsiyalar bergan [2, 20-bet]. S.V.Pankov va A.P.Tsipinning “Моделирование влияния социально-экономических факторов на валовой региональный продукт” (2015) nomli asarida ijtimoiy-iqtisodiy omillarning yalpi hududiy mahsulotga ta’sir darajasi belgilab berilgan [3, 243-bet].

X.Abu va I.V.Orlovning “Сравнительный эконометрический анализ величины валового регионального продукта в регионах Российской Федерации” (2014) maqolasida ekonometrik tahlil asoslarini bayon qiladi va regressiya tenglamasi parametrlarini baholaydi, omillarning YaHMga ta’sirini tavsiflaydi [4, p 9].

A.Neshadin va V.Kashinlarning “Динамика развития валового регионального продукта регионов РФ” (2013) maqolasida mintaqalarni asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra farqlanishi tadqiq etiladi [5, 157 b].

S.S.Gordev va A.V.Kocherovning “Анализ и формализация динамики валового регионального продукта в условиях экономической нестабильности” (2014) omillar ta’siri va rivojlanish darajasiga qarab mintaqalarning farqlanishi to‘g‘risida bir qator xulosalar qilinadi [6, 102 b].



Tadqiqot metodologiyasi. Yalpi hududiy mahsulotning muttasil o'sishi mintaqalarning kelajakdagi rivojlanishini ham belgilab beradi. Yalpi hududiy mahsulotning barqaror o'sishi mintaqalar taraqqiyotining asosiy omilidir. Shu nuqtai nazardan, maqolada YaHMning nazariy va uslubiy asoslarini o'rganilgan, shuningdek yalpi hududiy mahsulot dinamikasini tahlil qilingan. Qiyosiy va tarkibiy tahlil qilish uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan foydalilanilgan. O'rganish jarayonida tahlil, sintez va qiyosiy tahlil usullaridan foydalilanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Mintaqaviy hisoblar tizimi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tavsiya qiladigan milliy hisoblar tizimining bir yo'nalishi hisoblanadi. Yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) ni mintaqaviy hisoblar tizimi MHT asosida hisoblashni ko'rib chiqamiz.

Aytish joizki, avvalambor yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) ni (MHT) asosida hisoblashning ustuvor yo'nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

Yalpi mintaqaviy mahsulot mintaqalar kesimida:

- joriy baholarda hisoblanadi;
- YaMM ning fizik hajmi bahosi indeksi hisoblanadi;
- doimiy baholarda hisoblanadi;
- daromadlarni hisobga olgan holda uy xo'jaliklarining pirovard iste'moliga qilingan xarajatlar;
- asosiy kapitalning yalpi jamg'armalari.

Yuqorida ko'rsatkichlar yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) ning shakllanishi, aniqrog'i alohida tarmoqlarning qo'shilgan qiymati to'g'risida aniq tasavvur beradi. Hozirda, aksariyat hamdo'stlik mamlakatlari davr taqozosи bilan (ma'muriy



xususiyatiga qarab YaMM ni hisoblaydi) yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblashni yalpi ichki mahsulot hisoblashning aynan o‘zini qilib olgan. Bu boradagi qiyinchiliklar turli mamlakatlarda har xil kechmoqda. Masalan, ayrim mamlakatlardagi katta bir hudud va mintaqa bilan o‘zaro mos kelmasligidir. O‘zbekistonda yalpi mintaqaviy mahsulot (YaMM) ni hisoblashdagi zarur axborot to‘liq bo‘lmasada lekin, mavjud. Shuning uchun YaIM ni bir oz qisqartirib yalpi mintaqa mahsulotini hisoblash imkoniyati bor. O‘zbekistonda yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblash metodologiyasi mintaqaviy hisoblar tizimi (MHT) xalqaro standarti yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblash quyidagi usullarga tayanadi: “Quyidan” – “Yuqoriga” va “Yuqoriga” -“Quyiga” yoki “aralash” usullardan foydalaniadi.

- “Quyidan” – “Yuqoriga” usulining birlamchi axboroti mintaqa rezidentlari summasiga tayanadi. Milliy darajadagi barcha mintaqalar summasining milliy darajasiga.
- “Yuqoridan” - “Quyiga” usuli birlamchi axborot bazasi milliy daraja ko‘rsatkichlaridan mintaqalar darajasigacha taqsimlanadi. Bu usul mintaqaviy va milliy ko‘rsatkichlarni muvofiqlashtiradi.
- “Aralash” usuli birinchi va ikkinchi usullarni kombinatsiyasidir.

Hozirgi kunda iqtisodiy makonlarni barqaror va innovatsion rivojlantirishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Shu nuqtai nazardan iqtisodiy makon - mintaqalarning iqtisodiy faoliyatini o‘zida aks ettiradigan ko‘rsatkichlar tizimini yaratish muhim ahamiyat kasb qilmoqda. Ana shunday tizim milliy hisoblar tizimi va mintaqalar darajasida uning, ya’ni mintaqaviy hisoblar tizimining mantiqiy davomi hisoblanadi. Mintaqaviy hisoblar tizimi – mintaqa ko‘rsatkichlarining kompleks tizimidir. U mintaqadagi xo‘jalik subyektlari faoliyatini aks ettiradi. Boshqacha aytganda institutsional birliklarni iqtisodiy operatsiyalarini o‘zida aks ettiradi. Iqtisodiy



operatsiyaga, iqtisodiy munosabatlarga kiruvchi instittlarning barcha moliyaviy va nomoliyaviy aktivlari harakatini o‘zida ifoda qiladi. Mintaqaviy hisoblar tizimini o‘ziga xos maqsadi quyidagilardan iboratdir:

- alohida mintaqqa darajasida makroiqtisodiy tahlil orqali mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish siyosatini ishlab chiqiladi;
- mintaqalararo taqqoslash orqali ular o‘rtasidagi tafovutlar aniqlanadi;
- milliy hisoblar tizimi va Mintaqaviy hisoblar tizimi o‘rtasida integratsiyalashgan tizim yaratish hisoblanadi.

Mintaqaviy hisoblar tizimi asosiy metodologiyasi uni milliy hisoblar tizimi bazasida ishlab chiqishdir. Boshqacha qilib aytganda mintaqaviy hisoblar tizimi milliy hisoblar tizimining sintezi. Birinchi marta bu metodologiyani ishlab chiqishga qo‘l urgan olim, Nobel mukofoti laureyati (o‘tgan asrning 50 yillar boshida) Robert Stoundir.

Mintaqaviy hisoblar tizimi – bu Milliy hisoblar tizimini to‘g‘ridan to‘g‘ri mintaqalar darajasiga o‘tkazib qo‘yish – degan tushuncha noto‘g‘ri. Nima uchun? Chunki mintaqaviy hisoblar tizimiga bo‘lgan zaruriyat bir tarafdan, mintaqaviy iqtisodiyotni ochiq iqtisodiyot ekanligida bo’lsa, ikkinchi tomondan, mintaqalar darajasida milliy hisoblar tizimida o‘zining aksini topadigan milliy iqtisodiyot darajasidagi qator faoliyatlarni yo‘qligi yoki bu faoliyatlar olib borilmasligi va hisobga kiritilmasligidadir. Hozirgi kungacha mintaqaviy hisoblar tizimini yagona standarti Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida mavjud. Alovida mintaqalarda mintaqaviy hisoblar tizimini ishlab chiqilishini qiyinligini hisobga olib, Yevrostatning tavsiyalaridan foydalanishga maslahat beriladi. Bunda, ya’ni Yevrostatning mintaqaviy hisoblar tizimi standartida har qaysi mintaqqa alohida iqtisodiy birlik deb qaraladi. Bu holda mintaqalarning boshqa bir mintaqalar bilan bo‘ladigan



tranzaktsiyalari o‘ziga xos tashqi, hatto tashqi dunyo bilan aloqa deb qaraladi. Bundan tashqari ayrim iqtisodiy aktivlar hudud tashqarisida deb hisoblanadi. Bular:

- a) milliy havo makoni, transchegaraviy suvlar;
- b) hududiy tashkilotlar, Elchixona va Konsulliklar;
- c) xalqaro suv xavzalari qaridagi foydali qazilmalar.

Nazariy jihatdan mintaqada ham tovar va xizmatlar hisobi (schyoti), ishlab chiqarish hisoblamalari, daromadlarning birlamchi va ikkilamchi taqqoslash schyoti, daromadlardan foydalanish hisobi, kapital operatsiyalar hisoblarini ishlab chiqishi mumkin. Amalda esa, bu hisoblamalarni amalga oshirish qator qiyinchiliklarga duch keladi. Bularni hisoblash avvalambor, metodologik va axborot borasidagi qiyinchiliklarga borib taqaladi. Ko‘pincha mintaqaviy hisoblar-tarmoqlarning ishlab chiqarish faoliyati, uy xo‘jaliklari, mahalliy hokimiyat faoliyati bilan cheklanib qoladi.

Aynan, mana shu cheklanganlikni hisobga olib, Yevrostat quyidagi ko‘rsatkichlarni hisoblashni tavsiya qiladi.

1. Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy tarmoq agregatlari, bular:
 - yalpi qo‘shilgan qiymat;
 - yollanma ishchilar ish haqi;
 - umumiyligining bandlik;
 - asosiy kapitalning yalpi jamg‘arilishi.
2. Yalpi mintaqaviy mahsulot;
3. Uy xo‘jaliklarini mintaqaviy hisoblamalari.

Agarda soliqlar va mahsulotlarga berilgan subsidiyalar ma’lum bo‘lsa, ya’ni aniq bo‘lsa, Yalpi mintaqaviy mahsulot bozor baholarida hisoblanadi va bu xalqaro



standartga mos keladi. Agar bu ma'lumot bo'lmasa, asosiy baholarda hisoblanadi. Aslida asosiy baholarda yalpi mintaqaviy mahsulot hisoblashni bozor nuqtai nazaridan orqaga ketish bilan izohlasa ham bo'ladi.

Jami yalpi mintaqaviy mahsulot (O'zbekistondagi 14 ta mintaqa) YaIM dan mintaqalar o'rtasida taqsimlanmaydigan kattalik yoki hajmda kam bo'ladi. Turli vaqlarda taqsimlanmaydigan qism o'zgarib turadi. Masalan, tashqi savdoning qo'shilgan qiymati mintaqalar bo'yicha taqsimlanmas edi. Shuningdek, bozorni amal qilishini ta'minlovchi tijorat faoliyati, alohida nobozor kollektiv xizmatlari, mudoofaga xizmat qiluvchi moliyaviy xizmatlar va boshqalar ham taqsimlanmagan qismga kiradi. Mintaqalar byudjetini rejalashtirishda va uni monitoring qilish faoliyatida yalpi mintaqaviy mahsulotdan foydalaniladi.

Mintaqaviy hisoblar tizimida uning schyotlarini hisoblashda qaysi ko'rsatkichlari asosiy baholarda va qaysi ko'rsatkichlarni bozor baholarida mintaqaviy hisoblar tizimini ko'rib chiqish lozim. Bunda mintaqaviy hisoblar tizimining quyidagi hisoblamalari shakllanadi:

- ishlab chiqarish hisoblamasi;
- daromadlar hosil bo'lish hisoblamasi;
- daromadlardan foydalanish hisoblamasi;
- kapital operatsiyalar hisobi;
- tovar va xizmatlar hisobi.

Ishlab chiqarish hisoblamasini tuzishda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy baholardagi yalpi mintaqaviy mahsulot va quyidagilar hisoblab chiqiladi:


- a) asosiy baholarda Yalpi ishlab chiqarish;
- b) oraliq iste'mol;



v) yalpi qo'shilgan qiymat.

(a-b) = Yalpi qo'shilgan qiymat, ya'ni asosiy baholardagi yalpi milliy mahsulot. Bu yerda nima hisoblanmaydi? Mahsulotga soliqlar kirmaydi. Subsidiyalar esa kiradi. Milliy hisoblar tizimida ham mintaqaviy hisoblar tizimida ham qo'shilgan qiymat asosiy baholarda hisoblanadi. Shuning uchun hum u subsidiyalarni o'z ichiga oladi. Ammo mahsulotga soliqni o'zini ichiga olmaydi. Mahsulotga soliq to'lovi ishlab chiqarilgan mahsulot va amalga oshirilgan xizmat bahosiga bog'liq (qo'shilgan qiymat solig'i, realizatsiyadan soliq, aksiz soliqlar). Shu o'rinda aytish joizki, sof soliqlar soliqlardan subsidiyalarni ayirmasiga teng bo'ladi. Demak, yalpi qo'shilgan qiymat yoki yalpi mintaqaviy mahsulot bozor baholarida quyidagiga teng bo'ladi:

YaMM (yalpi mintaqaviy mahsulot)=YaI-OI=YaQQ (asosiy baholarda)+mahsulotga sof soliq+ importga sof soliq.



1-rasm² Axoli jon boshiga YaIM ning o'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da.

² O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.




O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti 90 milliard dollardan oshdi. Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti (YaIM) ilk bor 1 kvadrillion 66 trillion 569 milliard so‘mni tashkil etdi. O‘tgan yilda mamlakat YaIM hajmi 6 foiz o‘sib, 90,9 milliard dollarga (o‘rtacha almashuv kursi 11,737 so‘m) yetdi. Bu raqam aholi jon boshiga hisoblaganda 2,5 ming dollardan to‘g‘ri keladi. O‘tgan yilning yanvar – dekabr oylarida mamlakatdagi korxonalar tomonidan 655,8 trillion so‘mlik (2022-yildagidan 6 foiz ko‘p) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi 426,2 trillion so‘mni (2022-yildagidan 4,1 foiz yuqori) tashkil etdi.

2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko‘ra, aholi jon boshiga hisoblangan yalpi ichki mahsulot hajmi joriy narxlarda 6 580,6 ming so‘mni (yoki 527,5 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etdi³.

Ma’lumot uchun: 2023-yilning yanvar-mart oylarida ushbu ko‘rsatkich 5 584,9 ming so‘mni (yoki 492,4 AQSH dollari ekvivalentida) tashkil etgan.

2023-yilda O‘zbekiston yalpi ichki mahsuloti shakllanishida hududlar ulushi



³ Samstat.uz



2-Rasm⁴. 2023-yilda O'zbekiston Yalpi ichki mahsuloti shakllanishida hududlar ulushi.

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining shakllanishida Toshkent shahri 17,1 foiz ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent (10,1 foiz) va Navoiy (7,7 foiz) viloyatlari keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush esa Sirdaryo viloyati (2 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,1 foiz) va Jizzax viloyati (3,1 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, yalpi mintaqaviy mahsulotni hisoblashni ikkinchi usuli butaqsimot usuli hamda, uchinchi usul pirovard iste'mol usuli ham mavjud. Bu usullar bo'yicha hisoblashda O'zbekistonda axborot bazasidagi muammolar bor. Taqsimot usulida yalpi mintaqaviy mahsulot = Mintaqalar yalpi foydasi + yalpi aralash daromad + ish haqi + ishlab chiqarish va importga sof soliq yig'indisidan iborat. Pirovard iste'mol usulida hisoblanadigan YaIM = pirovard iste'mol + yalpi jamg'arma + sof eksport yig'indilaridan iborat bo'ladi. Daromadlar hosil bo'lishi hisoblamasi soliq, subsidiyalar va ishlab chiqaruvchilar orasidagi o'zaro harakatni ifodalaydi. Daromadlardan foydalanish - ya'ni, ixtiyoridagi daromadni qanday qilib pirovard iste'mol va jamg'armaga bo'linishini ifodalaydi.

Hududiy yakuniy iste'molni hisoblashda, mintaqaning moddiy va moliyaviy resurslarining muhim qismi boshqa mintaqalar bilan almashinish yo'li bilan shakllanganligi va bu almashinuvni ro'yxatdan o'tkazish qiyin bo'lganligi sababli qiyinchiliklar paydo bo'ladi; natijada foydalanish ko'rsatkichlari hajmi Hududiy darajada ishlab chiqarish hajmini aks ettirmasligi mumkin, ya'ni foydalanish va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari Hududiy darajada muvozanatlashmaydi. Yuqoridagi omillar YaHMni ishlab chiqarish usuli bilan mintaqaga iqtisodiyotining barcha tarmoqlari uchun tarmoqlarda ishlab chiqarilgan qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida hisoblashni taqozo etadi. Ma'lumki, sanoatning qo'shimcha qiymati hisobot

⁴ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



davrda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida (oraliq iste'mol) shu davrda iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Hududiy ishlab chiqarish, oraliq iste'mol va qo'shimcha qiymatni hisoblash metodologiyasi respublika darajasidagi prinsip asosida amalga oshiriladi.

Xulosa. Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston Respublikasi ham Xalqaro milliy hisoblar tizimi (MHT) va xalqaro mintaqaviy hisoblar tizimi standartlari imkoniyatlaridan to'la foydalanishni kengaytirish lozim. Bu birinchi navbatda bozor mahsulotlari va xizmatlarini to'la va aniq hisobga olish imkoniyatlarini yaratadi. Bu standartlar avvalambor bozor mexanizmlarining ishlashiga keng yo'l ochib berishi, shaffoflikni ta'minlashdagi roli isbotlangan. Albatta, buning uchun axborot bazasini, avvalambor taqsimot, pirovard iste'mol, daromadlar hosil bo'lishi va ulardan foydalanishi borasidagi axborot bazasini yo'lga qo'yishni taqozo qiladi. Mamlakatimizda yaratilayotgan sharoitlar va imkoniyatlardan keng foydalangan holda buni amalga oshirishning imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni.
2. Yakubov I. va boshqalar "Mintaqaviy iqtisodiyot" (2020) [2, 20-bet].
3. Панкова С.В., Цыпина А.П. Моделирование влияния социально-экономических факторов на валовой региональный продукт //Вестник Оренбургского государственного университета. 2015. №13. С. 243-248.
4. Абу Х., Орлова И.В. Сравнительный эконометрический анализ величины валового регионального продукта в регионах Российской Федерации//Современные научноемкие технологии. 2014 № 7, С, 9-10.



5. Нещадин А., Кашин В. Динамика развития валового регионального продукта регионов РФ // Ощество и экономика. 2013 № 6 С. 157-170.
6. Гордеева С.С., Кочеров А.В. Анализ и формализация динамики валового регионального продукта в условиях экономической нестабильности //Вестник Челябинского государственного университета. 2014. № 15. С. 102-107.
7. Королев М.А., Иванов Ю.Н., Карасева В.Л. Опыт стран СНГ в измерении ненаблюдаемой экономики. // Вопросы статистики, №11/2004.
8. Бреднева Л.Б. К вопросу об измерении дифференциации регионов по уровню экономического развития //Вестник ХГАЭП. 2015. №1. С 75-77
9. Якубов И.А., Расулова И.А. Конкурентоспособность экономики регионов. Монография. Изд. Узбекистан. 2007 г.
10. lex.uz – rasmiy sayti.
11. www.stat.uz - O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi rasmiy sayti.